

QO'SHILISH SHARTNOMASI

Toshkent shahri

“UNITEL” mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan keyin **“Operator” deb yuritiladi**) va Abonent o'rtasidagi ushbu Qo'shilish shartnomasi (bundan keyin **“Shartnoma” deb yuritiladi**) iste'mol segmenti uchun oldindan to'lov tizimidan foydalanuvchi abonentlari uchun mobil qurilmalarni muddatli to'lov sharti bilan sotib olish-sotish bo'yicha standart umumiy qoidalar va yagona shartlardan iborat bo'lib, Tomonlarning standart huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Shartnoma tomonlari Operator va Abonent hisoblanadi. Abonent O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq ushbu Shartnoma shartlarini qabul qilgan hamda 3-bo'lim “Shartnoma tuzish”da nazarda tutilgan tartibda ushbu Shartnomani tuzgan jismoniy shaxsdir.

Har bir Tomon boshqa Tomonga zarur huquqiy layoqatga, shuningdek ushbu Shartnomaga qo'shilish va uning shartlariga muvofiq majburiyatlarni bajarish uchun zarur va yetarli barcha huquq va vakolatlarga ega ekanligini kafolatlaydi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Shartnomada bosh harflar bilan belgilangan va qo'llaniladigan atamalar quyidagi ma'nolarga ega bo'ladi:

“Abonent raqami”	uyali ko'chma radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida Operator tomonidan abonentga beriladigan, telekommunikatsiya tarmog'iga ulangan abonent qurilmasi boshqa jihozlar bilan bog'langanda aniqlash imkonini beradigan raqam;
“Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi”	Tomonlar tomonidan imzolnadigan va ushbu Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan shakl bo'yicha Operatordan Abonentga Mobil qurilma topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;
“Oylik to'lov”	Abonentning Operatorga Mobil qurilma uchun muddatli to'lov bo'yicha ushbu Shartnomada belgilangan tartibda har oyda to'lanishi lozim bo'lgan to'lovi;
“Ariza beruvchi”	ushbu Shartnomani tuzishni istagan jismoniy shaxs;
“Qo'shilish to'g'risidagi ariza”	Shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan shakl bo'yicha Shartnomaga qo'shilish haqidagi ariza;
“Mobil balans”	Abonentning Operatoridagi shaxsiy hisobida qayd etilgan va Operator xizmatlariga haq to'lash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari;
“Mobil qurilma”	Operator tomonidan Abonentga muddatli to'lov shartlari asosida beriladigan va Muddatli to'lov shartlarida ko'rsatilgan mobil telefon;
“Qoldiq qiymat”	Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan yoki muddatidan oldin undirish uchun boshqa asoslar yuzaga kelgan taqdirda Operatorga to'lanishi lozim bo'lgan, Abonentga muddatli to'lov sharti bilan taqdim etilgan Mobil qurilmaning to'liq qiymati bilan bunday bekor qilish yoki tegishli asoslar yuzaga kelgan sanaga qadar Abonent tomonidan kiritilgan Oylik to'lovlar miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan to'lanmagan qismi;
“Operatorning rasmiy sayti”	Operatorning www.beeline.uz manzilida joylashgan rasmiy veb-sayti;

“Ish kuni”	O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ishlanmaydigan bayram kunlarini hisobga olgan holda, besh kunlik ish haftasidagi ikki dam olish kunli (shanba va yakshanba) ish kuni;
“Skoring”	Operator tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, shuningdek, boshqa qonuniy manbalardan olingan ma’lumotlar asosida, Ariza beruvchining muddatli to’lov olish shartlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan baholash tartibi. Skoring natijalari Operator tomonidan Shartnoma tuzish to’g’risidagi qarorni qabul qilish uchun foydalaniladi;
“Sug’urta kompaniyasi”	O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug’urta faoliyatini amalga oshiruvchi va Mobil qurilma bilan bog’liq xatarlarga nisbatan sug’urta qoplamasini taqdim etuvchi yuridik shaxs;
“To’lovlarni hisoblash jadvali”	Muddatli to’lov shartlarida keltirilgan oylik to’lovlarning miqdori va soni to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan jadval;
“Tarif rejasi”	Operator tarif rejasi - Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shartlar asosida Abonentga taqdim etiladigan mobil (uyali) aloqa xizmatlari paketini o’z ichiga olgan reja;
“Muddatli to’lov shartlari”	Qo’shish to’g’risidagi arizaga 1-ildovada belgilangan qoidalar to’plami bo’lib, u Mobil qurilmaning qisqacha tavsiflarini, To’lovlarni hisoblash jadvalini, shuningdek, Abonent tomonidan Mobil qurilma uchun to’lovlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi boshqa shartlarni o’z ichiga oladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Abonent tomonidan imzolangan Qo’shish to’g’risidagi ariza asosida Operator Muddatli to’lovni taqdim etish shartlarida ko’rsatilgan holatlarga muvofiq Mobil qurilmani Abonentga mulk sifatida beradi, Abonent esa ushbu Shartnoma shartlariga binoan Mobil qurilma uchun to’lovlarni o’z vaqtida muddatli to’lov majburiyatini oladi.
- 2.2. Abonent ushbu Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini to’liq bajarmaguncha “Raqamni qayta rasmiylashtirish” va/yoki “Raqamni o’zgartirish” xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega emas.

3. SHARTNOMA TUZISH

- 3.1. Shartnoma tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
 - 3.1.1. Abonent Qo’shish to’g’risidagi arizani imzolash orqali Shartnomaga to’liq qo’shiladi va uning shartlariga rozilik bildiradi;
 - 3.1.2. Shartnomada belgilangan tartibda imzolangan Qo’shish to’g’risidagi arizani taqdim etish orqali Ariza beruvchi ushbu Shartnoma shartlariga roziligini va ularga rioya qilish majburiyatini tasdiqlaydi;
 - 3.1.3. Qo’shish to’g’risidagi arizani topshirishda Ariza beruvchi Operatorga quyidagi hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etishi shart:
 - a) Pasport yoki ID-karta;
 - b) Ariza beruvchi nomidan ish yurituvchi shaxsga berilgan ishonchnoma (agar Qo’shish to’g’risidagi ariza Ariza beruvchi nomidan ishonchnoma asosida bunday shaxs tomonidan imzolangan bo’lsa);
 - c) Ishonchnoma asosida Ariza beruvchi nomidan ish yurituvchi shaxsning pasporti yoki ID-kartasi;

3.1.4. Operator ushbu Shartnomaning 3.1.3-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilgandan so'ng, Ariza beruvchining skoringini o'tkazadi va baholash natijalariga ko'ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- a) qo'shilish to'g'risidagi arizani qabul qiladi va Mobil qurilmani topshiradi; yoki
- b) Arizachiga Shartnoma tuzishni va ish munosabatlarini o'rnatishni rad etadi;

3.1.5. Operator Shartnoma tuzishni rad etish sabablarini tushuntirishi shart emas.

3.2. Qo'shilish to'g'risidagi ariza qabul qilingan sana Shartnoma tuzilgan sana hisoblanadi (bundan keyin **Kuchga kirish sanasi** deb yuritiladi).

4. TO'LOV TARTIBI

- 4.1. Birinchi Oylik to'lov Abonent tomonidan Mobil qurilmani Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha topshirishdan bevosita oldin amalga oshiriladi.
- 4.2. Keyingi har bir Oylik to'lov To'lovlarni hisoblash jadvaliga muvofiq, har oyda birinchi to'lov amalga oshirilgan kalendar sanasida, Abonent tomonidan muddatli to'lov majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar hisobdan chiqariladi.
- 4.3. Pul mablag'lari Mobil balansdan hisobdan chiqariladi.
- 4.4. Abonentning tarif rejasi qiymati tegishli tarif rejasi shartlariga muvofiq alohida va mustaqil ravishda to'lanadi hamda ushbu Shartnoma bo'yicha oylik to'lovlar tarkibiga kirmaydi. Oylik muddatli to'lovlar faqat Mobil qurilma uchun to'lanadigan to'lovlarga taalluqlidir.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Abonent quyidagilarga majbur:
 - 5.1.1. ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilishga;
 - 5.1.2. Shartnoma shartlariga muvofiq Mobil qurilmani qabul qilishga;
 - 5.1.3. To'lovlarni hisoblash jadvalida belgilangan hisobdan chiqarish miqdorigacha Mobil balansni to'ldirish orqali Oylik to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga;
- 5.2. Abonent quyidagi huquqqa ega:
 - 5.2.1. ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Tarif rejasini hech qanday cheklovlarisiz o'zgartirish.
- 5.3. Operator quyidagilarga majbur:
 - 5.3.1. Abonent ushbu Shartnomaga muvofiq birinchi Oylik to'lovni to'laganidan so'ng Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha Mobil qurilmani tegishli holatda Abonentga topshirishga;
 - 5.3.2. Abonentga hisob-kitoblar va muddatli to'lov bo'yicha qarzdorlik holati haqida ma'lumot berish.
- 5.4. Operator quyidagi huquqlarga ega:
 - 5.4.1. Abonentdan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Mobil qurilma qiymatini to'lashni talab qilish.

6. MOBIL QURILMANI QABUL QILISH

- 6.1. Mobil qurilmani Abonentga topshirish Operator tomonidan Mobil qurilma amalda topshirilayotgan paytda Tomonlar imzolaydigan Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.
- 6.2. Mobil qurilmani qabul qilishda Abonent qadoqning butunligini va ko'zga ko'rinadigan nuqsonlar mavjudligini vizual tekshirishi shart. Abonentning Mobil qurilmani qabul qilishi uning miqdori, assortimenti va vizual ko'rikda aniqlanishi mumkin bo'lgan boshqa xususiyatlari bo'yicha e'tirozlar yo'qligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Abonent O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va muddatlarda Mobil qurilmaning sifati bilan bog'liq talablarni qo'yish huquqini saqlab qoladi.
- 6.3. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasining Abonent tomonidan imzolanishi ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari unga tushuntirilganligi va qabul qilinganligi tasdiqlaydi.

- 6.4. Abonentning kafolatli foydalanish davrida aniqlangan nuqsonlar bo'yicha barcha keyingi murojaatlari faqat ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari doirasida vakolatli xizmat ko'rsatish markazlari orqali amalga oshiriladi.
- 6.5. Mobil qurilmaga egalik huquqi, shuningdek, Mobil qurilmaning tasodifiy yo'qolishi/shikastlanishi/nobud bo'lishi xavfi Operator tomonidan Mobil qurilma topshirilgan va Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab Abonentga o'tadi.

7. KAFOLAT MAJBURIYATLARI

- 7.1. Ushbu Shartnoma doirasida Abonentga taqdim etiladigan mobil qurilma faqat ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan ta'minlanadi.
- 7.2. Mobil qurilmaning kafolat muddati (bundan keyin "**Kafolat muddati**" deb yuritiladi) u Abonentga topshirilgan kundan boshlab hisoblanadi va tegishli Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi.
- 7.3. Abonent quyidagilarni tan oladi va rozi bo'ladi:
- kafolat faqat Mobil qurilma ishlab chiqaruvchisi tomonidan beriladi;
 - kafolatlarni berish shartlari, hajmi va tartibi faqat ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi;
 - bunday shartlar ushbu Shartnomada ko'rsatilmagan cheklovlar, istisnolar va maxsus talablarni o'z ichiga olishi mumkin.
- 7.4. Operator Mobil qurilmaga nisbatan hech qanday kafolat bermaydi, uning Abonent kutganidek bo'lishi uchun javobgar emas, shuningdek, ishlab chiqaruvchi belgilagan kafolat shartlaridan tashqari majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi.
- 7.5. Kafolatli holatlarga oid barcha murojaatlar Abonent tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchining vakolatli servis markazlariga yoki kafolat hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa tashkilotlarga yo'naltiriladi.
- 7.6. Ishlab chiqaruvchining vakolatli servis markazlari manzillari Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

8. KAFOLAT CHEKLOVLARI

- 8.1. Kafolat quyidagi holatlarga nisbatan amal qilmaydi:
- (a) Mobil qurilma qabul qilingandan so'ng zavod nuqsoni bo'lmagan mexanik shikastlanishlarga (ekrandagi yoriqlar, korpusning sinishi va hokazo) uchragan bo'lsa;
 - (b) Mobil qurilma va uning tarkibiy qismlari korroziyaga, oksidlanishga, begona materiallar yoki suyuqliklar, kimyoviy moddalar ta'siriga uchragan bo'lsa;
 - (c) Mobil qurilma ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilmagan uchinchi shaxslar yoki xizmatlar tomonidan ochilgan, qismlarga ajratilgan, o'zgartirilgan yoki ta'mirlangan va/yoki Mobil qurilma ruxsat etilmagan qismlardan foydalanib ta'mirlangan yoki Mobil qurilmaning seriya raqami, sana kodi, IMEI har qanday tarzda o'chirilgan, o'chirilib tashlangan, shikastlangan, o'zgartirilgan bo'lsa;
 - (d) Mobil qurilma modifikatsiya qilingan yoki uning dasturiy ta'minotiga o'zgartirishlar kiritilgan (jumladan, root yoki proshivka) bo'lsa;
 - (e) Mobil qurilma standartlarga mos kelmaydigan uskunalar, mahsulotlar yoki tizimlar yoxud quvvatlash moslamalari, kabellar va boshqalar kabi sertifikatlanmagan aksessuarlar bilan ishlatilgan bo'lsa;
 - (f) Mobil qurilmaning normal foydalanish natijasida tabiiy eskirishi (batareyaning eskirishi, protsessorning qizib ketishi va hokazo);
 - (g) Mobil qurilmaning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi.

9. MOBIL QURILMANI QAYTARISH VA ALMASHTIRISH

- 9.1. Abonent Mobil qurilma O'zbekiston Respublikasining chakana savdo qoidalariga muvofiq tegishli sifatda sotilgan taqdirda qaytarilmaydigan yoki o'xshash tovarga almashtirilmaydigan nooziq-ovqat tovarlari toifasiga kirishini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi.

- 9.2. Operator tomonidan Abonentga topshirilgandan so'ng, Mobil qurilmani qaytarish yoki almashtirish faqat Kafolat muddati davomida Mobil qurilmada zavod nuqsonlari aniqlangan taqdirdagina mumkin bo'ladi.
- 9.3. Ushbu Shartnomaning 9.2-bandiga muvofiq zavoddagi nuqson aniqlangan taqdirda, Abonentning ixtiyoriga ko'ra:
- (a) Zavod nuqsoni bo'lgan Mobil qurilma yangi, xuddi shunday Mobil qurilmaga almashtiriladi;
 - (b) Abonent tomonidan Mobil qurilma qaytariladi. Bunday holda, muddatli to'lov hisobiga to'langan pul mablag'lari Abonentning Mobil balansiga qaytariladi.
- 9.4. Zavod nuqsonini tasdiqlash uchun Abonent ishlab chiqaruvchining rasmiy xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilishi va rasmiy xizmat ko'rsatish markazi tomonidan berilgan zavod nuqsonini tasdiqlovchi dalolatnomani olishi lozim.
- 9.5. Ushbu Shartnomaning 9.4-bandida ko'rsatilgan dalolatnoma bilan birga zavod nuqsoni bo'lgan Mobil qurilmani qaytarish yoki almashtirish uchun Abonent Operatorga quyidagi hujjatlar to'plamini taqdim etishi shart:
- Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;
 - Abonentning pasporti yoki ID-kartasi asl nusxasi.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 10.1. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 10.2. Abonent muddatli to'lov bo'yicha oylik to'lovni to'lamagan yoki o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, tarif rejasiga muvofiq abonent to'lovi to'langan va o'z vaqtida to'lanishidan qat'i nazar, abonentning mobil balansi salbiy holatga tushishi mumkinligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi.
- 10.3. Abonent O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan jarima miqdoridan tashqari, zararlarni to'liq hajmda qoplaydi.
- 10.4. Javobgarlikni qo'llash Tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.
- 10.5. Abonent Oylik to'lovlarni 30 (o'ttiz) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirgan taqdirda, Operator Abonentni oldindan ogohlantirmasdan:
- (i) Mobil qurilmadan foydalanishni bloklash. Abonent Mobil qurilmani bloklash uning ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilishini ta'minlash chorasini ekanligini va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 259-moddasiga muvofiq amalga oshirilishini tan oladi va bunga rozilik bildiradi;
 - (ii) ushbu Shartnomani bir tomonlama suddan tashqari tartibda bekor qilish va Abonentdan Shartnoma bekor qilingan sanadan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida belgilangan muddatda Mobil qurilmaning qoldiq qiymatini va boshqa qarzlarni to'lashni talab etish;
 - (iii) Muddatli to'lov bo'yicha qarzni va/yoki Qoldiq qiymatni talab qilish huquqini Sug'urta kompaniyasiga yoki boshqa uchinchi shaxsga o'tkazish.

11. QO'LLANILADIGAN HUQUQ VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 11.1. Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tartibga solinadi va talqin qilinadi.
- 11.2. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish yoki bekor qilish munosabati bilan Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilishi lozim.
- 11.3. Nizolar va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, bunday nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning majburiy da'vo tartibi o'rnatiladi. Bunda da'vo yuborilgan Tomon da'voni u olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kundan oshmaydigan muddatda ko'rib chiqishi shart.
- 11.4. Agar nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan yoki da'vo tartibida hal etilmagan bo'lsa, bunday nizolar va kelishmovchiliklar da'vogar joylashgan hududdagi tegishli fuqarolik sudida uzil-kesil hal qilinishi kerak.

12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 12.1. Ushbu Shartnoma kuchga kirish sanasidan boshlab amal qiladi va Abonent tomonidan Mobil qurilma uchun to'lovlar bo'lib-bo'lib to'liq amalga oshirilgunga qadar davom etadi.
- 12.2. Muddatli to'lov muddati tugagach, Shartnoma Tomonlarning bajarilmagan majburiyatlari qismida o'z kuchini saqlab qoladi.

13. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 13.1. Operator istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda, Buyurtmachini qo'shimcha yozma ravishda xabardor qilmasdan, ushbu Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli bo'lib, buni yangi tahriri e'lon qilish orqali amalga oshiradi. Agar o'zgartirish va qo'shimchalarning kuchga kirish muddati shartnomaning yangi tahriri e'lon qilinganda alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, ular shartnomaning yangi tahriri e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Operator Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular e'lon qilinishidan oldin yuzaga kelgan munosabatlarga ham tatbiq etilishi mumkinligini belgilashga haqli.
- 13.2. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:
 - (i) Abonentning tashabbusi bilan, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar muddatidan oldin bajarilgan taqdirda;
 - (ii) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Operatorning tashabbusi bilan.
- 13.3. Abonent Mobil qurilma uchun qarzдорlikni muddatidan oldin to'lash niyatidagi sanadan kamida 5 (besh) ish kuni oldin Operatorni xabardor qilgan holda, ushbu qarzдорlikni muddatidan oldin to'lashga haqlidir.
- 13.4. Abonent tomonidan Shartnoma shartlari buzilganligi sababli Operator tashabbusi bilan Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Abonent Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida Operatorga Mobil qurilmaning Qoldiq qiymatini to'liq to'lashi, shuningdek, Shartnoma bekor qilingan paytga kelib yuzaga kelgan boshqa qarzдорliklarni ham to'lashi shart.
- 13.5. Abonent ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, Operator qarzni (shu jumladan Qoldiq qiymatni) undirish huquqini Sug'urta kompaniyasiga yoki boshqa uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli. Abonent bunday holatlarda Operator uchinchi shaxslarga Abonentga tegishli ma'lumotlarni, jumladan uning shaxsiy ma'lumotlari, Abonent foydalangan aloqa xizmatlarining hajmi va qiymati, qarz miqdori hamda boshqa zarur ma'lumotlarni taqdim etishiga rozilik bildiradi.

14. FORS-MAJOR HOLATLAR

- 14.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmagan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, agar bu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan, Tomonlar oldindan ko'ra olmagan yoki oldini ololmagan favqulodda vaziyatlar natijasida yengib bo'lmas kuch holatlarining oqibati bo'lsa. Yengib bo'lmas kuch holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (jumladan, valyuta operatsiyalariga cheklovlar), epidemiya va boshqa tabiiy ofatlar, urush yoki harbiy harakatlar va hokazo.
- 14.2. Shartnomaning ushbu bo'limida ko'rsatilgan holatlar yuz berganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart. Yengib bo'lmas kuch holatlariga tayanayotgan Tomon boshqa Tomonga ushbu holatlarning mavjudligini tasdiqlovchi va imkon qadar, ularning Tomonning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ta'sirini baholovchi rasmiy hujjatlarni zudlik bilan taqdim etishi lozim.
- 14.3. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari ta'siriga uchragan Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda xabarnoma yubormasa, u Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida bunday holatlarga tayanish huquqidan mahrum bo'ladi.
- 14.4. Shartnomaning ushbu bo'limida ko'zda tutilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati mazkur holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan vaqtga mos ravishda kechiktiriladi.
- 14.5. Agar Shartnomaning ushbu bo'limida sanab o'tilgan yuzaga kelgan holatlar va ularning oqibatlari 1 (bir) oydan ortiq davom etsa, Tomonlar Shartnomani bajarishning maqbul muqobil usullarini aniqlash maqsadida qo'shimcha muzokaralar o'tkazadilar.

- 14.6. Agar fors-major holatlari 2 (ikki) oydan ortiq davom etsa, Tomonlarning har biri Shartnomaning bajarilmagan qismiga nisbatan ushbu Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunda Tomonlardan hech biri ushbu bandga muvofiq Shartnomani bekor qilish natijasida boshqa Tomon oldida hech qanday javobgarlikka ega bo'lmaydi.

15. YAKUNIY QOIDALAR

- 15.1. Abonent Shartnomaga qo'shilganda:
- 15.1.1. Shartnoma shartlari unga tushunarli ekanligini va Abonent ularni hech qanday istisnosiz va to'liq hajmda qabul qilishini tasdiqlaydi;
 - 15.1.2. Operator tomonidan taqdim etilgan huquq va imkoniyatlardan ushbu Shartnomada ko'rsatilganidan boshqa maqsadlarda foydalanmasligiga kafolat beradi.
- 15.2. Tomonlardan hech biri boshqa Tomonning oldindan roziligisiz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq yoki majburiyatlarini to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.
- 15.3. Ushbu Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish, agar u yozma shaklda bo'lmasa va har bir Tomon yoki har bir Tomon nomidan imzolanmagan bo'lsa, haqiqiy hisoblanmaydi.
- 15.4. Ushbu Shartnoma Tomonning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan berilgan boshqa huquq va vakolatlarini amalga oshirishini cheklovchi yoki istisno etuvchi sifatida talqin qilinmasligi lozim.
- 15.5. Har qanday Tomonning ushbu Shartnomaga muvofiq yoki unga nisbatan biron-bir huquqiy himoya vositasi, huquq yoki vakolatni amalga oshirishdan voz kechishi yoki kechiktirishi (yoki muhlat berishi) bu huquqlardan voz kechish deb hisoblanmaydi, shuningdek, har qanday huquqiy himoya vositasi, huquq yoki vakolatni bir marta yoki qisman amalga oshirish boshqa yoki keyingi amalga oshirishga yoxud boshqa huquqiy himoya vositasi, huquq yoki vakolatni qo'llashga to'sqinlik qilmaydi.
- 15.6. Agar istalgan vaqtda ushbu Shartnomaning biron-bir qoidasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha noqonuniy, haqiqiy emas, o'z-o'zidan bekor bo'lgan yoki har qanday jihatdan bajarib bo'lmaydigan bo'lsa, bu ushbu Shartnomaning qolgan qoidalarining qonuniyligi, haqiqiyliigi yoki bajarilishiga ta'sir etmaydi. Haqiqiy bo'lmagan, noqonuniy yoki bajarib bo'lmaydigan qoida Tomonlar nazarda tutgan eng yaqin iqtisodiy natijaga erishish uchun o'zgartiriladi, to'ldiriladi, talqin qilinadi yoki qo'llaniladi. Tomonlar ushbu Shartnomaning har bir va barcha qoidalari, ushbu Shartnomaning boshqa har qanday qoidasi yoki qoidalarining haqiqiy emasligi yoki bajarib bo'lmagligidan qat'i nazar, tuzilishiga rozilik bildiradilar.
- 15.7. Shartnoma rus tilida 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, har bir Tomon uchun 1 (bir) nusxadan bir xil yuridik kuchga ega.
- 15.8. Abonent/Arizachining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan "Unitel" MChJ ning Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 15.9. Ushbu Shartnomaga ilovalar:
- 1-ilova: Qo'shilish to'g'risidagi ariza shakli;
 - 2-ilova: Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi shakli.

16. OPERATOR HAQIDA MA'LUMOT

- 16.1. Operator sifatida O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100164, Mirzo Ulug'bek tumani, Tepamasjid ko'chasi, 4-uyda ro'yxatdan o'tgan "UNITEL" MChJ faoliyat yuritadi.

Veb-sayt: www.beeline.uz

Telefon raqami: +99890 185 00 55

Elektron pochta: 0611@beeline.uz

STIR: 201838002

IFUT: 61200

Bank rekvizitlari:

Bank nomi: O'zR TIF Milliy bankining Bosh boshqarmasi huzuridagi Amaliyot boshqarmasi.

H/r: 20208000700971325001

MFO: 00451

QO'SHILISH TO'G'RISIDAGI ARIZA SHAKLI

QO'SHILISH TO'G'RISIDAGI ARIZA №___

Toshkent sh.

202_ yil "___" _____

Men, [Xaridorning F.I.Sh.], O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, [●] raqamli [●] seriyali pasport /ID-karta [●] tomonidan [●] sanada berilgan, JShShIR: [●], O'zbekiston Respublikasi, [●] manzilida ro'yxatdan o'tgan, [●] №-sonli abonent shartnomasi, Abonent sifatida, "UNITEL" MChJ (bundan keyin - **"Operator"**) bilan tuzilayotgan Qo'shilish shartnomasining (bundan keyin - **"Shartnoma"**) shartlari bilan tanishganimni tasdiqlayman hamda ushbu №__ sonli Qo'shilish arizasini (bundan keyin - **"Ariza"**) imzolash orqali mazkur Shartnoma shartlariga to'liq, so'zsiz va to'la hajmda qo'shilishimni bildiraman.

1. Men quyidagilarni tasdiqlayman va roziman:
 - 1.1. Mobil qurilma va uni muddatli to'lov asosida sotib olish shartlari Shartnomada va ushbu Arizaning 1-ilovasida (bundan keyin - **"Muddatli to'lov shartlari"**) belgilangan.
 - 1.2. Muddatli to'lov bo'yicha qarzni to'lash Shartnoma va Muddatli to'lov shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
 - 1.3. Men Shartnomada belgilangan tartibda qarzni muddatidan oldin to'lash huquqiga egaman.
 - 1.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, qoldiq qiymat Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanishi shart.
 - 1.5. Men Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganimda, Operator qarzni undirish huquqini Sug'urta kompaniyasiga yoki boshqa uchinchi shaxsga o'tkazishga haqli.
2. Ushbu Ariza Qo'shilish shartnomasining aksepti va uning ajralmas qismi hisoblanadi.
3. Ushbu Ariza rus tilida 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, Abonent va Operator uchun 1 (bir) nusxadan beriladi va bir xil yuridik kuchga ega.
4. Ushbu Arizaga ilova:
 - 1-ilova: Muddatli to'lov shartlari

Abonentning imzosi: _____ / [F.I.Sh.]/

Imzolangan sana: 202_ yil "___" _____

[QUYIDA 1-ILOVA KELTIRILGAN]

MUDDATLI TO'LOV SHARTLARI

1. Ushbu Ilova Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Abonent tomonidan muddatli to'lov sharti bilan taqdim etilgan Mobil qurilma uchun Oylik to'lovlarni amalga oshirish tartibi va shartlarini belgilaydi.
2. Operator quyidagi Mobil qurilmani Abonentga mulk sifatida topshiradi:

Mobil qurilma modeli	Mobil qurilmaning qisqacha tavsifi
[●]	[●]

3. Mobil qurilmaning umumiy qiymati QQS bilan [●] ([●]) so'mni tashkil etadi.
4. Muddatli to'lov muddati [●] ([●]) kalendar oyni tashkil etadi.
5. Abonent quyidagi To'lovlarni hisoblash jadvalida ko'rsatilgan miqdorlarda Oylik to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi:

Oy	Oylik to'lov (so'm)	Qarz qoldig'i (so'm)
1.	[●]	[●]
2.	[●]	[●]
3.	[●]	[●]
4.	[●]	[●]
5.	[●]	[●]
6.	[●]	[●]
7.	[●]	[●]
8.	[●]	[●]
9.	[●]	[●]
10.	[●]	[●]
11.	[●]	[●]
12.	[●]	0

Abonentning imzosi: _____ / [F.I.Sh.]/

Imzolangan sana: 202_ yil "___" _____

QABUL QILISH-TOPSHIRISH DALOLATNOMASINING SHAKLI

QABUL QILISH-TOPSHIRISH DALOLATNOMASI № [●]

Toshkent shahri " " 202_ y.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan, bundan buyon "Operator" deb ataladigan "UNITEL" MChJ nomidan [Lavozimi va F.I.Sh.], [Ustav, Ishonchnoma va h.k.] asosida ish yurituvchi, bir tomondan, va

bundan buyon "Abonent" deb ataladigan [Abonentning F.I.Sh.], pasport/ID-karta seriyasi [●] raqam [●], [●] tomonidan [●] yilda berilgan, JShShIR: [●], O'zbekiston Respublikasi, [●] manzilida ro'yxatdan o'tgan, ikkinchi tomondan,

bundan buyon birgalikda "Tomonlar" va alohida holda "Tomon" deb yuritiladigan, Qo'shilish shartnomasi va 202_ yil " " dagi [●]-sonli Qo'shilish to'g'risidagi arizaga muvofiq, quyidagilar haqida ushbu Qabul qilish-topshirish dalolatnomasini (bundan buyon "Dalolatnoma" deb yuritiladi) tuzdilar:

1. Operator ushbu Dalolatnomaga muvofiq Abonentga quyidagi mulkni (bundan buyon "Mobil qurilma" deb yuritiladi) mulk huquqi bilan topshirdi va Abonent uni qabul qildi:

№	Mobil qurilma nomi	IMEI	Soni	QQSsiz birlik narxi	QQSsiz miqdor	QQS	QQS bilan miqdor
1.	[●]	[●]	[●]	[●]	[●]	[●]	[●]

2. Abonentning ushbu Dalolatnoma bo'yicha topshirilayotgan Mobil qurilma soni, assortimenti va boshqa xususiyatlariga nisbatan Operatorga e'tirozi yo'q.

3. Ushbu Dalolatnomani imzolash orqali Tomonlar Kelishuvga ko'ra Mobil qurilmani qabul qilish-topshirish bo'yicha majburiyatlarini tegishli ravishda bajarganliklarini tasdiqladilar.

4. Ushbu Dalolatnoma 2 (ikki) nusxada tuzilib, Tomonlarning har biriga 1 (bir) nusxadan beriladi.

OPERATOR
"UNITEL" MCHJ

ABONENT

[Lavozimi]
[F.I.Sh.]

[F.I.Sh.]